

OILADA NIKOH OLDI OMILLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI<https://doi.org/10.5281/zenodo.10045072>**Nabiyeva Dilorom Temirovna***Mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola nikoh oldi omillarining psixologik xususiyatlari ga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *yosh avlod, barkamol etib voyaga yetkazish, shaxslararo munosabatlar, bolalaridagi inqoroz, oilada nizoli vaziyatlar, mustahkam oila, oila g'amxo'rligi, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabat, mamlakat va millat, oila huquqi normalari, ma'naviy tarbiyalash, shaxsiy tavsifga ega bo'lish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДРУБРАЧНЫХ ФАКТОРОВ В СЕМЬЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности добрачных факторов и, в свою очередь, важнейшие социальные задачи семьи: создание личности, воспитание детей, совершенствование людей физически и духовно, объединение их духовно, вместе задачи обеспечения содержания, выделены оказание взаимопомощи, обеспечение экономического и социального развития общества, улучшение демографических процессов.

Ключевые слова: молодое поколение, взросление, межличностные отношения, кризис у детей, конфликтные ситуации в семье, крепкая семья, семейная забота, важнейшие социальные задачи семьи, семейные отношения, страна и нация, нормы семейного права, духовное воспитание, имеющее личностную характеристику.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRE-MARRIAGE FACTORS IN THE FAMILY

Abstract: This article focuses on the psychological characteristics of premarital factors, and in turn, the most important social tasks of the family: creating a person, raising children, maturing people physically and spiritually, uniting them spiritually, together the tasks of ensuring maintenance, providing mutual assistance, ensuring economic and social development of society, improving demography processes are highlighted.

Key words: *young generation, bringing to adulthood, interpersonal relations, crisis in children, conflict situations in the family, strong family, family care, the most important social tasks of the family, family relationship, country and nation, norms of family law, spiritual upbringing, having a personal description.*

Jamiyat va davlatning oilaga g'amxo'rligi bizning ijtimoiy siyosatimizning muhim yo'nalishiga aylangan. Oila masalalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida e'tibor berib kelmoqda. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqida yoshlarni oilaga tayyorlash va ularning huquqiy tushunchalarini shakllantirish va ta'lim-tarbiya olish jarayonlariga alohida to'xtalib o'tdi: - "Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

"Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalari, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz¹⁵», – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev forumda yoshlar bilan ochiq muloqotda.

Shuni ta'kidlash joizki, oilaning muqaddas tushunchasi ko'plab muammolari bilan hamisha tadqiqotchilar aqlu zakovatini to'lqinlantirib kelgan. Chunonchi, sosiologlar oilani yaratish uchun er va xotinning bo'lishi kifoya qiladimi yoki erkak va ayol ittifoqi oila deb nomlanishi uchun farzandlarning ham bo'lishi shartmi, degan muammo ustida bahslashib keladilar. Yuridik jihatdan buning uncha ahamiyati yo'q. Yuristlar esa, boshqa masala xususida – ya'ni, er va xotinning qonunda ko'zda tutilgan tartib va shartlarga riosa etmay tuzgan ittifoqlarini oila deb hisoblash mumkinmi? degan ma'noda babs yuritadilar. Bunda gap hatto ular birgalikda ro'zg'or yuritib, o'z farzandlarini tarbiyalayotgan bo'lsalar ham qonuniy asosdagi nikohda ro'yxatdan o'tmasdan uzoq vaqt davomida oshkora ravishda erkak va ayolning birgalikda yashab kelishlari haqida ketayapti. Jiddiy gapiradigan bo'lsak, bunday ittifoq nikoh bo'lolmaydi hamda ota-onalarning bolalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini istisno etganda, hyech qanday yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik nikohi yoki cherkov (masjid) nikoha deb atalgan nikoh yuridik ma'noda oilani dunyoga keltirolmaydi. U faqat onalik va otalik munosabatlarini, ya'ni huquqlarning muayyan hajmi (masalan, ota-onaning istalgan har biri mulkining meros bo'lib qolishi bo'yicha bolalar huquqi)ni vujudga keltiradigan qon-qarindoshlik

¹⁵ Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон ўшлари форумида сўзлаган нутқидан, 25 декабрь 2020 ийл, 18:00 [сиёсат](#).

aloqalarinigina yuzaga keltiradi. Birga yashovchi hamxonalar (yuridik nuqtai-nazardan ularni er-xotinlar deb atab bo'lmaydi) bir-birlarining mulkini meros qilib ololmaydilar.

Oila uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasidir, jamiyat tuzilishining obyektiv zarur, ajralmas qismidir.

Ijtimoiy ma'noda oila odamlarning ijtimoiy jihatdan alohida uyushgan guruhlar, ma'naviy, xo'jalik, maishiy va boshqa turmush shartlari hamda manfaatlari bir xil bo'lgan shaxslar ittifoqidir.

Oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi. Ayni oilada inson xarakterining asoslari, mehnatga, ma'naviy va madaniy boyoliklarga munosabat shakllanadi.

Yangi qurilayotgan oilaning kelajagi ota-onalarning, shuningdek yoshlarning o'zini ham qiziqtiradi. Bunday ma'suliyatli damda yuzaga kelayotgan oila kelajagi qanday bo'lishini bilish uchun ota-onalar, bo'lg'usi kelin-kuyovlar quyidagi nikoh oldi omillariga e'tibor berishi lozim.

Nikoh oldi omillari: oilaviy hayotga yetukligi, ularning oila qurish sabablari, ularning oila qurishgunga qadar bir-birini tanishlik muddati shart-sharoitlari, ularning bo'lg'usi hayot haqida tasavvurlarini kiritish mumkin.

Masalan: nikohda yetuklik deganda oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini aniqlash mumkin. Psixologlar tavsiyasiga binoan nihoyatda erta (16-17 yoshda) va kech (28-30 keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Nihoyatda erta yoshda oila qurish va ikkisini ham yoshi 17-18 bo'lishi, yigitning oila boshlig'i sifatida shakllaniishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Qiz bola 17, ba'zan 16 yoshda ham onalik, uy bekalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lishi mumkin, ammo 17 yoshdagagi yigit hali to'laqonli oila boshlig'i vazifasini bajarishga tayyor bo'lmaydi. Ba'zida bu kelinni kuyovga yetarli darajada hurmat qilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Kech oila qurishni maqsadga muvofiq emasligi yosh ulg'aygan sari (ayniqsa qizlarda) oila qurish imkoniyatlari pasayadi, ammo turmush o'rtog'i tanlashdagi mezonlar soni keskin ortadi. Har bir "nomzoddan" turli kamchiliklar topilaveradi. Bu masalada shoshilish ham, kech qolish ham xatoliklarga olib kelishi mumkin. Insonning psixologik yetukligi bu o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yishi, turli yashash sharoitlariga moslashishidir.

Endi nikoh oldi omillarini psixologik tadqiq etamiz.

Juda ko'p bir necha o'nlab, lekin umumlashtirgan holda uch klassifikasiyaga bo'linadi:

1. Sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng, to'y bilan turmush qilib, bir-birlariga yetishadilar.

2. Moddiy manfaatdorlik tufayli oila qurish. Yoshlar turmush qurar ekan ma'lum bir maqsadni ko'zlashlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda "Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman" yoki "shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma'lum bir mansab, mavqyega erishaman" yoki "Yolg'izlikdan qutilish" kabilar.

3. Stereopik bo'yicha oila qurish — ya'ni bunday oila qurgan yoshlardan so'ralsa, "Hamma tengdoshlarim o'ylanayotgandi, men ham uyladim" yoki "hamma dugonalarim turmushga chiqishayotgandi, men ham turmushga chiqdim" kabilar. Xo'sh bu oilalarning qay biri mustahkamroq bo'ladi?

Ko'pchilik sevgi deb javob berishi tabiiy, chunki sevgining oila mustahkamligidagi o'rni beqiyosdir. Albatta sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati baxtli hayot kechirishadi. Lekin statistik ma'lumotlarga qaraganda ajralishning aksariyat qismi ham xuddi shunday sevishib oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Agar o'zaro ahdupaymon qilganlar oila qurganlaridan keyin "Murod — maqsadimga erishdim" deb sevgisini himoya qilishni, uning uchun kurashmasa sevgi nobud bo'ladi, sevgi nomi bilan qilingan orzu-niyatlar sarobga aylanadi.

Ikinchi ya'ni moddiy sababchi? — uning ta'siri bu sabablarni qay darajada amalgaloshishiga bog'liq. Ya'ni ko'zda tutilgan narsalarning barchasi ro'yobga chiqaversa, u nikoh mustahkamligini ta'minlashi mumkin. Afsuski oilaviy hayotda hamma narsa ham yigit qizlar kutganidek bo'lavermaydi, natijada ularning turmushi g'urbat-azobga, nizo-janjalga aylanadi, statistik ma'lumotlarga ko'ra eng mustahkam oilalar stereotip bo'yicha oila qurganlarga to'g'ri kelar ekan. Ularda ajralish juda kam, chunki ular "hamma qatori" oila qurishgan qarashsaki hamma ham binoyidek yashayapti. Bular ham yashayverishadi. Birgalikdagi hayot tufayli er-xotin o'rtasidagi bir-birlariga moslashish tushunish bir-biriga mehr yuzaga kelib sevgi darajasiga yetishi mumkin.

Tanishish muddati nihoyatda qisqa (uch oygacha) va juda uzoq (8-10 yildan ortiq) bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Shu o'rinda qizlik sha'ni haqida aytib o'tish kerakki u inson ruhiyatidan millat ruhiyatidan kelib chiqadi.

Nikoh oldi omillarida muxabbat ma'lum bir katta o'ringa ega. Muhabbat hislari uch bosqichni bosib o'tadi: a) boshlang'ich, v) angangan, s) o'zaro hurmat bosqichlari.

Insoniyat bor ekan muhabbat odamni sirli tuyg'ular olamiga yetaklagan, uni yengib bo'lmas to'siqlardan o'tishga, yuksak cho'qqilarni zabit etishga undagan, uni rag'batlantirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa etgan. Hozirgi kunga qadar muhabbat tushunchasiga yagona ilmiy ta'rif-tavsif berilmagan. Hissiyotdagi ayrim bosqichlarga ko'ra muhabbat turini, bosqichini umuman sevgi hislarini bor-yo'qligini aniqlash mumkin.

Alangalangan, ya'ni ikkinchi bosqich quyidagicha:

1. "Birgalik" effekti. Bunday hollarda muhabbat hislarini boshdan kechirayotgan shaxsning ongida, tasavvurida, xayolida doimo sevikli yori gavdalanim turadi. Nima ish qilmasin, qayerda bo'lmasin xayolan u bilan gaplashadi.

2. Idrokning ideallashishi. Bunday hollarda sevilgan inson ideallashgan holda idrok etiladi. Takrorlanmas darajadagi shaxs sifatida nihoyatda chiroyli, aqli, odobli va o'zga ijobjiy xislatlarga ega bo'lgan yigit yoki qiz sifatida idrok etiladi.

3. Al'truizmning keskin ifodalanganligi. Bu bosqichda altruizmning og'irlik markazi muhabbat timsoli bo'lgan qiz yoki yigitga yo'nalgan bo'ladi.

U sevgan qizi yoki yigitini marifaatini o'zining, ota-oniasining, o'ziga yaqin kishilarning marifaatidan ustun qo'yadi.

4. Muhabbat kuchiga cheksiz ishonish. Bunday hollarda muhabbat hislarini boshidan kechirayotgan shaxs o'z sevgilisi bilan birga bo'lishni, tezroq u bilan oila qurishni, umrini oxirigacha u bilan bo'lishni orzu qiladi.

5. Sevgilisida boshqalar ko'rmangan jihatlarni ko'rish, "muhabbat ziyrakligining" namoyon bo'lishidir.

6. Sevgan odamda hayotga muhabbat kuchayadi, hayotni chuqurroq idrok eta boshlaydi, o'zgalarni qalbdan tushunish va rahmdillik hislari paydo bo'ladi va ortadi.

Mijoz bilan muhabbat orasidagi bog'liqlik: xolerik va sangvinik toifadagi yoki ularning aralashuvidan iborat toifadagilar o'zgalar bilan tez va oson til topishadi.

Flegmatik va melanxoliklar esa o'zgalar bilan til topishi ancha qiyin. Ular duch kelgan kishi bilan do'stlashib ketavermaydilar. Ammo do'stlikning qadriga yetib, arzimagan sabab bilan do'stlikdan kechmaydilar. Ularda hissiyot nihoyatda chuqur va pinhona kechadiki, buni boshqalarning tashqi tomondan sezishi qiyin.

Oilashunos, ruhshunoslarning ta'kidlashicha, oila ajralishlarining aksariyati mijozlarning mos kelmasligi, juftlarning bir-birini tushunmasligi oqibatidir. Bir-biriga yaqin yoki bir xil mijozli er-xotinlarda aytilgan fofia bo'imasligi mumkin. Bundan xolerik mijozli er-xotin mustasno. Bunday er-xotinlar orasida janjalli hollar ko'p bo'ladi. Har bir jinsdag'i inson bolasi asta-slekin ulg'ayadi va balog'atga yetadi. Balog'at yoshida inson tabiiy holda o'z juftini topishga va birga hayot kechirishga intiladi yoki boshqacha qilib aytganda inson o'zidan surriyod qoldirishning asosiy sharti bo'lgan jinsiy hayotga kirib boradi.[4] Tibbiyot ilmi qiz bolalarda jinsiy hissiyot avvalroq (9 yoshda), o'g'il bolalarda esa keyinroq (11-12 yoshda) boshlanadi deb o'rgatadi. Bu yoshdan boshlab insonning jinsiy moyilligi qo'zg'ala boradi. Ayniqsa, 15-18 yoshda bu hissiyot rivojlangan davr bo'ladi. Shu sababli bu yoshda yigit ham, qiz bola ham o'z jinsiy a'zolarini pokiza tutishi, shahvoni y hirsni qo'zg'atuvchi omillardan doim o'zini muhofaza qilishi kerak.

Shu bilan birga oilaviy huquqiy munosabatlarning ular ishtirokchilarining irodasi bo'yicha kelib chiqadi. Bu turdag'i huquqiy munosabatlarda ularning subyektlari nafaqat o'zlariga tegishli huquq va majburiyatlarni ko'ngilli ravishda qabul qiladilar, balki, qoida tariqasida, istalgan paytda o'z hohishiga ko'ra ular mazmunini o'zgartirishlari mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda er-xotinlarning qonunda o'rnatilgan doiralarda o'z huquq va majburiyatlarini, xususan o'z mulkinining u yoki bu haqiqiy tartibotini erkin va teng aniqlashlari asosida nikoh huquqiy munosabatlari oddiy holat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so'zi, 2020 yil dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yoshlar forumidagi va ma'naviyat haqida" nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat. 1998. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №5-6, ilova.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Rasmiy nashr. 2003. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, №2-ilova; 1996 yil, 11-12-son.
5. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000. – 446 b.
6. Nechayeva A.M. Semeynoye pravo. Kurs leksiy. – M.: Yurist. 1998. – 336s.
7. Otaxo'jayev F.M. Oila huquqi. – T.: TDYul. 2005. – 280 b.
8. Rustamova A., Fozilova B. Oilashunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Buxoro "BPK" 2005 y., 80-85 b.
9. Andreyeva G. M. Sosialnaya psixologiya: Ucheb. dlya vuzov. M.: Aspekt Press, 2000. - 376 s.
10. A.N.Volkova. Metodicheskiye priyemы diagnostiki suprujeskix otnoshenii. M Rech 2005 g.

INTERNET SAYTLARI:

11. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/>
12. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
13. <https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>